

20

2022/2023-o'quv yili uchun OTMga
qabul kvotalari (bakalavriat):

kunduzgi ta'lim:
76 728 nafar;

sirtqi ta'lim:
27 365 nafar;

kechki ta'lim:
2 575 nafar;

masofaviy ta'lim:
3 610 nafar.

YOSHLAR OVOZI

**BIZ – KELAJAK
BUNYODKORIMIZ!**

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,
adabiy-badiiy
gazeta

35 (16488)
2022-yil, 4-iyun
shanba

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi.uz](#)

Kun mavzusi
3-bet

Narxlarni oshirish
zarurati bormi?

Mahallada yoshlar yetakchisi
4-bet

Faqat bersang,
yotib yesam...

Abituriyent sahifasi
6-bet

Talabalik
ostonasida



TURKIY KENGASH:

BUXORODA IV YOSH LIDERLAR FORUMI
BO'LIB O'TMOQDA

2-betga
qarang ↓

TURKIY KENGASH:

IV YOSH LIDERLAR FORUMI BO'LIB O'TMOQDA

Prezidentimizning Turkiya Respublikasida o'tkazilgan Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashining 8-sammitida bildirgan taklifi asosida Buxoro shahrida Turkiy davlatlar tashkilotining IV Yosh liderlar forumi bo'lib o'tmoqda.

Forumda **Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) Bosh kotibi Bag'dod Amreyev, O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa'dullayev, Buxoro viloyati hokimi Botir Zaripov, Turkiya Respublikasi Yoshlar va sport vaziri Mexmet Muxarrem Kasapoglu** hamda Turkiya, Ozarbayjon, Qirg'iziston, Qozog'iston, Turkmaniston, Vengriya davlatlardan san'at, madaniyat, sport, biznes, fan, ta'lim va media sohasining ko'zga ko'ringan vakillari ishtirok etmoqda.

Forumdan ko'zlangan maqsadlardan biri – TDTga a'zo va kuzatuvchi mamlakatlarning yoshlar siyosatiga mas'ul davlat va nodavlat tashkilotlari rahbarlari bilan maslahat uchrashuvlari o'tkazish hamda uchrashuv yakunida ikki va ko'p tomonlama hamkorlik kelishuvlari imzolash, turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo mamlakatlarning eng ilg'or yosh liderlari o'rtasida tadbirkorlar, madani-



yat, san'at, sport, media, ilm-fan sohalarida o'zaro doimiy tajriba almashish maydoni yaratishdan iboratdir.

Jumladan, **senator, Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa'dullayev** o'z nutqida shunday dedi:

– Mamlakatimizda yoshlar siyosati sohasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida ma'lumot berish hamda mamlakatning turizm salohiyatini xalqaro hamjamiyatda keng

namoyish etish kabi bir qator rejalar asosida tashkil qilingan mazkur forum turkiy xalqlarni har tomonlama birlashishga, tajriba almashishga chorlashi bilan ahamiyatlidir. O'ylaymizki, bu forum turkiy davlatlarning yanada yaqinlashishida, turli yo'nalishlarda hamkorlikni yo'lga qo'yishida muhim o'rin tutadi.

– Forum doirasida Yoshlar markazida "Buxoro shahri birinchi turkiy dunyo yoshlar tashabbuslari poytaxti" monumenti hamda "Turkiy dunyo yoshlari bog'i" ochilish marosimi bo'lib o'tdi, – **deydi Vazirlar Mahkamasining Yoshlar ishlari sho'ba mudiri Uchqun Xudoyorov.**

– Fan va ta'lim, tadbirkorlik, biznes marafon, san'at va madaniyat, media, sport yo'nalishlaridagi seminar-treninglarda TDTga a'zo va kuzatuvchi mamlakatlardan tashrif buyurgan mutaxassislar ishtirokida master-klasslar ham o'tkazildi. Yoshlar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash yo'nalishida yuqori martabali mehmonlar ishtirokida tashkil etiladigan motivatsion uchrashuvga ham katta qiziqish bildirilmoqda.

Bundan tashqari, seminar-trening va uchrashuvlarda yoshlar tomonidan bildirilgan tashabbuslarni TDTning Yoshlar va sport vazirlarining navbatdagi yig'ilishi kun tartibiga kiritish masalasi ko'rib chiqildi. Tadbir davomida kelgusida yoshlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshiriladigan mega loyihalar taqdimoti tashkil etiladi. Yakunda esa Turkiy davlatlar tashkilotining Yosh liderlar forumi rezolyutsiyasi imzolandi.

Forum doirasidagi barcha tadbir va uchrashuvlarda 10 ming nafardan ortiq yoshlar qamrab olinadi.

Muhammadshukur MUHAMMADJONOV,
Shahruza SATTOROVA,
"Yoshlar ovozi" muxbirlari



3905

MUROJAAT IJOBIY HAL ETILGAN

Iqtidorli, tashabbuskor yoshlar haqida so'z ketar ekan, Temurbek Orziyev haqida aytil o'tmasak, bo'lmas. Temurbek Qarshi shahridagi faol yoshlardan, u ish faoliyati davomida korxonalarda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan 2 ta loyihagini amaliyotga tatbiq etgan. Hozir Markaziy Osiyo davlatlarida birinchi bo'lgan "Smart Parking uz" nomli innovatsion startap loyihagini ishlab chiqqan.

Loyihada shaharlar markazlarida avtoturargohlar muammosini vertikal tartibda ishlovchi mexanik rotor parkovkalarni ommalashtirish orqali barcha taraf etish ko'zda tutilgan. Vertikal parkovkalarning samaradorlik ko'rsatkichi yuqori bo'lib, avtoturargohlar uchun mo'ljallangan yer maydonlarini sez-

larli darajada qisqartiradi. Loyihani qator rivojlangan davlatlarda ommalashib borayotgan "Craud funding" usuli orqali moliyalashtirish ko'zda tutilgan.

Temurbek Orziyev respublikamiz miqyosida o'tkazib kelinayotgan bir qator ko'rik-tanlovlarda ham faol ishtirok etmoqda. Xususan, u "O'zbekiston uchun 100 g'oya" tanlovida faol ishtirok etib, eng ilg'or TOP-100 nafar yoshlar ro'yxatiga kirgan.

Biz Temurbek kabi salohiyatli yoshlar murojaatlarini o'rganish, ularning g'oyalarini amalga tatbiq etishga ko'maklashishni ustuvor vazifalarimiz sifatida belgilab olganmiz. Bunday yoshlarni rag'batlantirish borasida bir qancha tadbirlarni amalga oshirdik. Jumladan, Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa'dullayev Qashqadaryoda bo'lganida G'uzor tumanidagi Ubaydulla Uvatov nomli IDUMning sharoitlarini ko'zdan kechirgan edi. O'z navbatida, maktab o'quvchilarini rag'batlantirish, "Yoshlar ishlari agentligi direktori kubogi"ni tashkil etish, maktabdagi bilimlil yigit-qizlar uchun 30 million so'm mukofot ajratish va'da qilingan edi.

Oradan ko'p vaqt o'tmay va'da bajarildi. IDUMda tashkil etilgan tadbirda ingliz tilini puxta o'zlashtirgan 30 nafar o'quvchiga 1 million so'mlik sertifikatlar topshirildi.

Bugungi kunda Qashqadaryo viloyatida 30 yoshgacha bo'lgan jami yoshlar 1 million 672 ming 423 nafarni tashkil etadi. Shundan 683 056 nafari



16-30 yoshda. Joriy yilning o'tgan davrida 10 176 nafar yoshlar "Yoshlar daftari"ga kiritilgan hamda 3 905 nafarining muammolari hal etilgan.

Shu kunga qadar "Yoshlar daftari"ga kirish uchun 14 298 ta onlayn murojaat kelib tushgan. Yo'nalishlar kesimida tahlil qilinganda bevosita yoshlarning o'zidan 10 622 ta, call-markazi orqali 1 909 ta, sektor kotibi orqali 429 ta, telegram boti orqali 222 ta, mahalla yetakchisi orqali 1 116 ta murojaat kelib tushgan.

Temurbek POYONOV,
Yoshlar ishlari agentligi Qashqadaryo viloyati boshqarmasi boshlig'i

Shu kunlarda normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portali – regulation.gov.uz saytiga joylashtirilgan Vazirlar Mahkamasining "Yoqilg'i-energetika resurslarining narxlarini o'zgartirish to'g'risida"gi qarori loyihasi bo'yicha ijtimoiy tarmoqlarda turli fikr-mulohaza va e'tirozlar bildirilmoqda. Bir tomondan aholi barqaror ta'minlanmagan elektr energiyasi narxining oshishidan noroziligini ifoda etayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan ishlab chiqaruvchilar narxlarini oshirishga bo'lgan ehtiyojni zarur ko'rib ishlayotgani bilan asoslanmoqda.


Xo'sh, energetika islohotlarida bizni qanday o'zgarishlar kutmoqda?

2022-yil 1-iyuldan:

elektr-energiyasi bo'yicha:

aholi uchun 1 kilovatt soat elektr energiyasi iste'moli oyiga 250 kilovatt soatgacha – 325 so'm (hozir 295 so'm), 250 kilovatt soatdan yuqori har 1 kilovatt soat uchun – 650 so'm;

tabiiy gaz bo'yicha: aholi uchun 1 kub metr tabiiy gaz iste'moli oy-



ga isitish mavsumida 700 kub metrgacha 410 so'm (hozir 380 so'm), 700 kub metrdan yuqori har 1 kub metr uchun 1 200 so'm, isitish mavsumidan tashqari davrda 200 kub metrgacha 410 so'm, 200 kub metrdan yuqori har 1 kub metr uchun 1 200 so'm etib belgilanmoqda.

Ma'lum qilinishicha, aksariyat oilalarda oshgan narxlardagi qo'shimcha to'lov miqdori bir oyga elektr uchun 7,5 ming so'mgacha, tabiiy gaz uchun issiq oylarda 6 ming so'mgacha, isitish mavsumida 21 ming so'mgacha bo'ladi.

“

REGULATION.
GOV.UZ SAYTIGA
JOYLASHTIRILGAN
VAZIRLAR
MAHKAMASINING
MAZKUR QARORI
LOYIHASI
MUHOKAMASI
15-IYUNGA QADAR
DAVOM ETADI.
SIZ HAM O'Z FIKR-
MULOHAZA VA
TAKLIFLARINGIZNI
BILDIRING!

NARXLARNI OSHIRISH ZARURATI

IJTIMOYIY NORMA
QAYERDAN
KELDI?

B O R M I ?

XULOSA O'RNIDA

O'zbekistonda elektr energiyasi iste'mol qiluvchi jami 7,3 million abonent bor va ularning 80 foizi oyiga o'rtacha 200 kilovatt soatgacha elektr energiyasi sarflaydi. Lekin mazkur xonadonlarning hissasiga aholi iste'mol qiladigan jami elektr energiyasining bor-yo'g'i 31 foizi (5,7 milliard kilovatt soat) to'g'ri keladi.

Tabiiy gaz iste'mol qiluvchi abonentlar esa 4 millionta. Bu xonadonlarning 85 foizi oyiga o'rtacha 500 kub metrgacha tabiiy gaz sarflaydi. Ular aholi jami iste'molchilarning 35 foizi (4,5 milliard kub metr)ni tashkil etadi.

O'tkazilgan so'rovnomalarga qarasaak, bir oila oyiga o'rtacha 350–500 kilovatt elektr energiyasi ishlatadi. Ayrimlar gaz yo'qligi, qishda elektr isitgichlardan foydalanishga majbur bo'lishini aytishgan. "Qishga oshgan narx bilan kirib borsak, 2000 kilovatt elektr, o'rtacha 1 200 000 so'm bo'ladi. Ha, demak, yemay-ichmay yozda yiqqanimizni qishda isinish uchun to'lar ekanmiz-dal!"; "Bitta muzlatkich bir kunda 8 kilovatt elektr energiyasi ishlatar ekan. Bu bir oyda 240 kilovatt bo'ladi. Shunda chiroqlar, changyutgich, fen, kir yuvish mashinasi va hokazolarga sarflangan elektr uchun qimmat narxda pul to'lanadimi?"; "Xonadonimda sakkiz kishi yashaydi, bizga 250 kilovatt tok suv isitib, yuvinishga ham yetmaydi. Masalan, aprel oyi uchun 542 kilovatt elektr energiyasi ishlatganmiz".

Xullas, kimdir aholi uchun ijtimoiy me'yorlar kutilganidan ham ziyoda belgilanganini aytisa, boshqa biron belgilangan limit – 250 kilovatt juda ozligini, kamida 400 kilovatt bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi.


MUTAXASSIS FIKRI QANDAY?

Energetika islohoti mavzusiga har kim turlicha munosabat bildirmoqda. **Iqtisodchi Shuhrat Qurbonov** "Elektr energiyasi uchun sun'iy pasaytirilgan narxdan bunga muhtojligi bo'lmaganlar katta foyda ko'radi" deya, energetikadagi subsidiyalash tizimining hozirgi shakli nima uchun adolatsiz ekan haqida quyidagi fikrlarni bildirdi.

– Aytaylik, 1 kilovatt/soat elektr energiyasining haqiqiy narxi 450 so'm (yuridik shaxslar uchun belgilangan narxdan kelib chiqib taxmin qildim). Maishiy iste'molchilar uchun esa 295 so'm. O'rtada 155 so'm farq chiqiyapti, – **deydi Shuhrat Qurbonov.** – Bu farq yakunda davlat tomonidan qoplanadi (ya'ni biz soliqchilar hisobidan). Bu degani, ishlatilgan har bir kilovatt, aniqrog'i, undan keladigan zarar soliq to'lovchilar hisobidan qoplanadi. To'g'ri, kimdir bu axir davlatning vazifasi-ku, deyishi mumkin. Lekin bu aslida u qadar to'g'ri emas. Qachondir o'ylab ko'rganmisiz, bundan yana o'sha shaharlarda yashaydigan boylar (mayli, o'ziga to'qlar deya qalaylik) yutadi. Nega? Xo'sh, shaharda yashaydigan (daromadli) o'rtamiyona kishi oyiga qancha ishlatadi – 200 kilovatt, 300 kilovatt? Tumanlarda bundan ham kamroq (ayniqsa, elektr yo'qligini hisobga olsak). Endi tasavvur qiling, kattagina kvartirada yoki hovli yashaydigan, 4-5 ta sovutkichi, har bitta xonasida televizori bor va hokazo sharoitlarga ega odam qancha elektr ishlatadi? Tur-

gan gapki, 1000 kilovatt dan ko'proq. Bundan kelib chiqadiki, daromadli o'rtamiyona odam davlatdan oyiga 200x155 so'm miqdorida (bilvosita) subsidiya oladi, bu 31 ming so'm degani. O'rtamiyona bo'lmagan kishi esa davlatdan 1000x155 so'm = 155 000 so'm oladi. Elektr energiyasi uchun sun'iy arzonlashtirilgan narxdan bunday arzonlashtirishga muhtojligi bo'lmaganlar katta foyda ko'radi. Bu yerda muhim nuans bor. **Agar liberalizatsiya qilish xohishi bo'lsa, bu odatdagidek narxlarni oshirish shaklida qilinmasligi kerak.** Elektr energiyasi narxi oshishidan birinchi bo'lib jabr chekadigan aholi ning zaif qatlamlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha avvaldan manzillik davlat siyosatini ishlab chiqish lozim. Aynan zaif qatlamlarni qo'llab-quvvatlash davlatning eng muhim vazifasidir.

Hozirgi kundagi elektr-energetika sohasining moliyaviy, iqtisodiy va texnologik holatining tahlili yillar davomida oshirilgan narxlar bu soha rivojiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatdi, deb ayta olmaymiz. Elektr energetika sohasida narxlar dan tashqari boshqa muhim bo'lgan, ammo e'tibordan chetda qolgan omillar tahlili bugun juda ham dolzarb. Elektr quvvatiga nisbatan oshib borayotgan ehtiyojni to'laqonli qondirish, sanoat foydalanuvchilari uchun elektr yetkazib berishni sifatli ta'minlash, rejadan tashqari o'chirishlarni kamaytirish, bundan tashqari, yetkazib berilmagan energiya tufayli yoki uzilishlar orqali keltirilgan zararni qoplash bo'yicha yetarli huquqiy normalar mavjud emas va mavjudlarini qo'llash amaliyoti ham sustligicha qolmoqda. Bu borada yetkazib berilmagan yoki uzilishlar orqali keltirilgan zararni qoplash va qat'iy normalar qo'llash amaliyotini kuchaytirish zarur.



FAQAT BERSANG, YOTIB YESAM...

Iqbol PARDAYEVA,
"Yoshlar ovozi" muxbiri

Yangi ish o'rinlari zamonaviy sport maydonchalari, imtiyozli kredit, subsidiyaga ish quruli, kasb-hunar o'rganish uchun "Ishga marhamat" monamarkazlari – hamma-hammasi kelajagimiz ertalariga. Hatto yoshlar biror to'siqqa duch kelsa, shu hududning o'zida hal etilishi uchun har bir mahallaga yoshlar yetakchisi tayinlanib, ular orqali muammolar bartaraf qilinmoqda. Mazkur lavozim joriy etilgandan so'ng ko'plab masalalar o'z yechimini topyapti.

Xo'sh, tortiq etilayotgan imkoniyatlar, kelajak bunyodkorlarini qoniqtiryaptimi? Yoki ular bundan-da ko'prog'idan umidvormi? Imtiyozlarga yoshlar qanday munosabat bildirmoqda? Hamma yoshlar ham berilgan imkoniyatdan foydalana olyaptimi? Bu borada mahallada yoshlar yetakchilarining fikrlari bilan qiziqdik.

01.



Hilola ABDULLAYEVA,
Oqdaryo tumanidagi "Yangiqishloq"
mahallasi yoshlar yetakchisi:

– Faoliyatimni boshlagandan buyon ko'p – turli xarakterli yoshlar bilan suhbat qildim, til topishdim. Ular orasida "faqat bersang, yotib yesam" deb yashaydigan yoshlarga ham duch keldim. Gap shundaki, mahallamizda "Yoshlar daftar"ga kiritilgan 19 nafar ishsiz yoshga mening tavsiyam bilan auksion orqali 10 yil muddatga 20 sotixdan yer ajratildi. Avvaliga hammasi yaxshiday edi. Biroq ekin qilish vaqti kelganda ular orasidan ishyoqmasi ham chiqib qoldi.

Bir nafar yoshimiz bu yerga nima ekamiz, shuncha mehnat qilsak, daromad olishimizni kim kafillaydi, deb so'radi. Men bu fikrni bir muddat o'ylab, keyin qo'shni mahalladan 7 ming so'mdan qizil loviya urug'ini olib keldim. Urug' sotuvchi keyingi yil uchun urug'likni ayni shu yigitlardan 18 ming so'mdan sotib oladigan bo'ldi.

Shu tariqa daromad olish kafolatlandi. Hamma yerga urug' qadadi. Haligi yoshimizda yana norozilik kayfiyati sezildi. Ekinni parvarish qilishdan bosh tortdi. Oradan biroz vaqt o'tgach o'sha yoshga ajratilgan yer maydonidagi ekin o'sib-rivojlanishda nisbatan orqada qolib ketdi. Yigit ekin-tekini ishlarini eplay olmas ekanman, deb yerdan voz kechdi. Hozir bu joydagi ekinlar hashar yo'li bilan parvarishlanmoqda.

Ko'rinib turibdiki, yoshlar orasida boqimandalik kayfiyati bilan yashayotganlari ham yo'q emas. Hatto og'ziga solib qo'ysang, chaynashga erinadiganlar ham bor. Ayrim yoshlarga biror kasbni tekkinga o'rganishni taklif qilsang, undan ko'ra yollanma ishchi bo'lsam, ko'proq pul topaman, deb taklifni rad etishadi. Ana shunday javob olgan yana bir mahalla yoshlar yetakchisining fikrlarini sizlarga havola qilishni istadik.

02.




Tursunqul HUSANOV,
Sirdaryo tumanidagi "Hikmatli" mahallasi yoshlar yetakchisi:

– Ayrim yoshlarga tadbirkorlik qilishni, buning uchun kredit ajratib berishni taklif qilsam, "Yo'q, oyma-oy kim to'laydi, bundan biror foyda chiqarmidi?" deb javob beradi. Bilmadim, bu qo'rqoqlikmi yoki ishonchsizlik. Hatto ba'zilar kasb-hunar o'rganish uchun monomarkazga yuboraman desam, "Yo'q, kerak emas, yo'l xarajatlari uchun ketadigan pulga o'zim birorta uskuna olib qo'yaman-ku", deydi. Vaholanki, o'qish xarajatlarini qoplab berish uchun ma'lum miqdorda stipendiya ham ajratilgan. Buni tushunishni ham xohlamaydigan yoshlar uchrab turadi.

Mahalla yetakchilarini qiyinayotgan masalalardan biri bu – yoshlarning taklif etilgan ish o'rinlari, yanayam aniq aytadigan bo'lsak, ish haqidagi norozilik kayfiyati. O'zi hech bir joyda ishlamaydigan yoshga bir yarim million so'mlik ish taklif etsang, bu pulga ishlashdan ko'ra ishsiz yurishni ma'qul ko'radi. Navbatdagi qahramonimiz shunday fikrdagi yoshlarga ko'p duch kelayotganini ta'kidlaydi.



03.



Erkin DALIYEV,
Termiz shahridagi
"Pattakesar" mahallasi
yoshlar yetakchisi:

– Yaqinda mahallamdagi ikki yoshga shahar markazidagi o'quv qurollari sotadigan savdo shohobchasidan oylik maoshi bir million sakkiz yuz ming so'mlik ish topib, joylashtirib qo'ydim. Kelishuvga ko'ra, tushlik ish beruvchining hisobidan edi. Oradan bir muddat vaqt o'tgach haligi yoshlarning biri yonimga kelib, boshqa ish topib bering, deb iltimos qildi. Sababini so'rasam, "Yo'l xarajatlari uchun oyligimning bir qismi ketib qolarkan, har kuni yo'limga uch mingdan ketyapti", deydi. Muammoga yechim izlab, o'zim hisoblab ko'rdim. Xarajat u aytganday ko'p emas. Uch ming so'mdan haftasiga 21 ming, oyiga esa 90 ming so'm atrofida xarajat qilarkansan, nimasi yomon, desam, boshqa ish topib bering, deb turib oldi. Oradan yana vaqt o'tib ikkinchi yosh ham u yerda ishlash fikridan qaytdi. Sababini so'rasam, "Shu oylikka kun bo'yi vaqtimni sarflaymanmi?" deb javob berdi. Men u yerda savdo-sotiqni o'rgan, kun kelib sen ham o'z biznesingni yo'lga qo'yarsan, dedim. "Yo'q, bu ish menga to'g'ri kelmaydi", deb qat'iy turib oldi. Ish beruvchi bilan gaplashsam, hammasi joyidaligini, kelib ishini davom ettirishi mumkinligini aytdi. To'g'risi, bunday yoshlarga ish topish eng katta muammo.

Bu toifadagi yoshlar har bitta hududda topiladi. Ularga qancha ko'p imkoniyat bersang, undan yaxshisiga da'vo qilishadi. Bu bilan yoshlar orasida boqimandalik hissi kuchayib ketmayaptimikini? Siz nima deysiz?

PIYODALAR BILIMI MATBUOT YORDAMIDA OSHIRILADI

O'tgan yilning o'zida yurtimiz bo'ylab 10 000 dan ortiq yo'l transport hodisasi ro'y bergan. Bu haqda Ichki ishlar vazirligi Yo'l harakati xavfsizligi xodimlari hamkorligida tashkil etilgan davra suhbatida ma'lum qilindi.

Transport hodisalarini eng ko'p Farg'ona, Toshkent, Namangan va Samarqand viloyatlari hamda Toshkent shahrida kuzatilgan. Tadbirida bu kabi ko'ngilsizliklarda nafaqat haydovchilar, shuningdek, piyodalarning ham o'rni katta ekani ta'kidlandi. Tadbirida piyodalarning yo'l harakati qoidalarini haqidagi bilimini oshirish maqsadida ijtimoiy tarmoqlarda maxsus videoroliklar, matbuotda maqolalar sonini keskin oshirishga kelishib olindi.

Ismigul JO'RAQULOVA,
O'ZJOKU talabasi

NOGIRONLAR KASBGA O'QITILADI

Mahallamizda istiqomat qiluvchi imkoniyati cheklangan, salomatligida muammosi bor yoshlarga zamonaviy kasblarni o'rgatish haqida ko'p o'yladim. O'zimizning viloyatda maxsus kasb-hunar maktabi bo'lmagani uchun Farg'ona shahar imkoniyati cheklangan shaxslar uchun kasb-hunar maktabiga borib, mahallamdagi imkoniyati cheklangan yoshlarni shu maktabga olib kelish niyatim borligini aytdim. Taklifim mas'ullarga ma'qul bo'ldi.

Maktab o'qituvchisi Dilafro'z Umarova bilan mahalladagi nogiron farzandlari bor oilalarga



Ithrorbek QAHHOROV,
Buloqbohi tumanidagi
"Baynalmilal"
mahallasi yoshlar
yetakchisi

kirib, ular uchun yaratilajak sharoitlar haqida gapirib berdik. Maktab ma'muriyati tomonidan o'quvchilar bepul yotoqxon va 4 mahal issiq ovqat bilan ta'minlanadigan bo'ldi.

Maktabda o'quvchilar yakka tartibdagi kiyim to'quvchi, tikuvchi, sotuvchi, nazoratchi kassir va shunga o'xshash kasblardan birining egasi bo'lib chiqishini tushuntirdik. Bitiruvchilar diplom olgach bitirgan sohasi bo'yicha ishga kirishlarini kafolatladik.

Noilaxon Egamberdiyeva, Shahbozbek Ahlidinov shu maktabda o'qish istagini bildirdi. Shu kunning o'zida hujjatlari rasmiylashtirildi. Ertasi kuni o'qish istagini bildirgan yoshlar ota-onasi bilan kasb-hunar maktabiga borib, sharoitlar bilan yaqindan tanishdi. O'quv yili boshlanishi bilan yoshlar o'qish uchun keladigan bo'ldi.

Mening asosiy maqsadim bunday yoshlarni jamiyatning faol qatlamiga qo'shish, moddiy qaramlikdan chiqarishdir.



ENDI ULAR MAXSUS MAKTABGA BORMAYDI

Uzoq yillar nogiron shaxslarni nogiron yoki o'zligiga qarab darajaga ajratish tizimi shakllanib keldi. Ommaviy axborot vositalari ham ulardan, xalq tilida aytganda, "geroy" yasashga o'rganib qoldi. Bu nogiron shaxsga nisbatan taskin bo'lar, ammo sog'lom bolalar uchun psixologik jihatdan og'riq bo'lmamikan?!

Nogiron bolalar ham barcha bolalar qatori ta'lim olishi mumkin. UNICEF, Yoshlar ishlari agentligi va yana qator vazirlik va tashkilotlar hamkorligida 1-iyun - Xalqaro bolalarni himoya qilish kunida ushbu loyiha targ'iboti boshlandi. Ya'ni nogironlik maktablari tugatilib, inklyuziv - sog'lom va nuqsongi bolalar birgalikda o'qishi g'oyasi ilgari surildi.

Loyiha amalga tatbiq etilgach jamiyatda noto'g'ri qarashlar yo'qoladi, nogiron bolalar o'zlarining boshqa bolalar bilan tengligini tushunib

yetadi. Sog'lom bolalarda ham ularga nisbatan "nogiron, imkoniyati cheklangan" tushunchasi o'zgaradi.

Bundan tashqari, ta'limning bunday shakli deyarli barcha bolalarni, hududidan qat'i nazar, qamrab olishi ham mumkin. Chunki ayrim chekka hududlarda nogiron bolalar ta'lim olishmaydi.

UNICEFning statistikasiga ko'ra, bugungi kunda mamlakatimizda 20 ming nafar bola nogironligi bo'yicha maxsus maktabda ta'lim oladi. 9 ming nafari esa umuman maktabga bormaydi. Inklyuziv ta'lim ota-onalarni va o'qituvchilarni biroz qiyinlab qo'yishi mumkin. Ammo har bir bola oila davrasida ota-ona mehrini his qilib ulg'ayadi.

Mashhura NASRIDINOVA,
"Yoshlar ovozi" muxbiri



177



IMKONIYAT

YOSH TIBBIYOT XODIMLARI UCHUN KOMPENSATSIYA



Prezidentimizning 2021-yil 11-yanvardagi "Olis hududlardagi byudjet tashkilotlariga malakali mutaxassislarni jalb qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan boshqa hududda yashovchi yosh tibbiyot xodimlariga kompensatsiya to'lash tartibi joriy etilgan.

Bunda boshqa hududda yashovchi tibbiyot xodimi olis va chekka hududlarda joylashgan oilaviy shifokorlik punktlari va oilaviy poliklinikalarga ishga qabul qilinganda kamida 3 yil ishlab berish sharti bilan 30 million so'm miqdorida bir martaalik boshlang'ich yordam puli, uy-joyi bo'lmaganlarga esa 3 yil davomida xizmat uylari berilishi yoki bazaviy hisoblashning 2 baravari miqdorida har oylik pul kompensatsiyasi beriladi. Mazkur imtiyozlardan foydalanish uchun nomzodlarning yoshi chegaralanmagan.

**Imtiyozni taqdim etish tartibi
va muddatlari:**

Olis va chekka hudud deganda Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi 471-son qarori bilan tasdiqlangan hududlar tushuniladi.

Boshlang'ich yordam puli va har oylik pul kompensatsiyasi soliq to'lovchining jami daromadiga kiritilmaydi hamda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining soliq solish obyektini hisoblanmaydi.

Boshlang'ich yordam puli va har oylik pul kompensatsiyasi hamda uy-joy sharoitini yaxshilash bo'yicha imtiyozlardan oliy ta'lim muassasasining bakalavriati yoki magistraturasini tamomlaganidan keyin uch yil mobaynida olis va chekka hududlarda joylashgan byudjet tashkilotlariga ishga kirgan bitiruvchilar foydalanish huquqiga ega.

Har oylik pul kompensatsiyasi oliy ma'lumotli mutaxassis va tibbiyot xodimi ishga qabul qilingan oydan boshlab 36 oy mobaynida to'lanadi.

Oliy ma'lumotli mutaxassis va (yoki) tibbiyot xodimi har oylik pul kompensatsiyasini olish uchun vaqtincha yashash joyini va uy-joyini ijaraga olganlik uchun kommunal xizmatlar qiymatisiz amaldagi xarajatlar summasini ko'rsatgan holda tegishli byudjet tashkiloti rahbariga ariza beradi. Bunda uy-joy ijarasi uchun haqiqatda to'lanayotgan to'lov bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravaridan kam bo'lgan taqdirda har oylik pul kompensatsiyasi miqdori haqiqatda to'lanayotgan to'lov miqdoriga muvofiq kamaytiriladi, qolgan barcha holatlarda har oylik pul kompensatsiyasi bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari hisobida to'lanadi.

TALABALIK OSTONASIDA

Ziyoda RAHIMBOYEVA

Kechagina bo'lib o'tgan bitiruv oqshomi charchoqlari va taassurotlaridan yiroqlashmay turib, bitiruvchilarimizni bir qator savolli muammolar, jumladan, abituriyentlikning "bosh og'riqlari" kutib turibdi.

Masalan:

- Siz tanlagan oliy o'quv yurti yashab turgan manzilingizga uzoqlik qilishi yoki boshqa viloyatda, hatto chet elda joylashgan xalqaro nufuzli universitetlardan biri bo'lishi mumkin.

- Manzil aniq, qaysi bilim yurtining qaysi fakulteti, qaysi yo'nalishiga hujjatlaringizni topshirishni ham rejalashtirib qo'ygansiz, biroq... Oilaviy vaziyat, aniqrog'i, yaqinlaringizning bu sohani tanlashingizga unchalik ham ro'yuxshilik berishmayotgani siz uchun jiddiy muammo bo'lmoqda, yaqinlaringizning qo'llab-quvvatlashi ba'zan ko'p narsani hal qilishi mumkindek...

- OTM va soha tanlandi, oilangiz qo'llab-quvvatlab, ishonch bildirib turibdi, ammo moddiy masalasi, to'lov-shartnoma summasi boshqa OTMlarga nisbatan "baland" yuradigan bu universitetga "iinib qolish"ga ham ko'zingiz yetmay turibdi, nima qilish kerak?

- Keyingi masala, sizda moddiy jihatdan ham, ma'naviy jihatdan ham yordam qo'lini cho'zuvi yuqinlaringiz bor, ammo siz hanuz qaysi sohaning "etagini tutish" haqida o'ylab, o'yingizga yeta olmayapsiz, shu kungacha qiziqib ko'rgan sohalaringiz juda ham ko'pligi yoki yo'qligi muammoning ildizi bo'lishi mumkin.

- Yoki sizda oliy o'quv yurtiga kirish imtihonlaridan o'tish uchun yetarlicha bilim va eng muhimi o'zingizga ishonch yetishmayotgandek...

Muammolar juda ko'p, kichik va arziyasdek ko'rinsa ham, o'spirin yoshdagi bitiruvchini gangitib qo'yishi mumkin, yechim esa...

YECHIMLARNI BIRGA IZLAYMIZ!

Yuqoridagi vaziyatlar katta muammodek ko'rinayotgan bo'lsa-da, aslida bugunga kelib oson yechiladigan matematik misolga o'xshab qoldi. Joriy yilning fevral oyi holatiga ko'ra, O'zbekistonda 159 ta, shu jumladan, Toshkent shahrida 72 ta, hududlarda 87 ta oliy ta'lim muassasasi mavjud.

OTM sizdan uzoq masofada joylashgan bo'lishi tabiiy va bu yechimi yo'q muammo emas. Yaxshilab o'ylab ko'ring, OTM joylashuvini ham ko'zdan kechirib chiqish zarur qilmaydi: balki, yaqin atrofda biror qarindosh yoki tanishingiz istiqomat qilur, u holda sizga turar joy topish muammo bo'lmaydi. Yaqinlaringizning uyi yoki ularning yordami bilan topilgan

joy sizdagi "bosh og'rig'i"ni bitta-ga kamaytiradi. Shu bilan birga, siz uchun o'quv yurti yotoqxonasidan (agar bo'lsa) arzonlashtirilgan o'rin ajratilishi ham mumkin.

Ta'lim shaklini o'zgartirish ham qulay tanlov. Agar siz uyda bola parvarishi yoki shu kabi sabablar bilan band bo'lsangiz, o'qishga hujjat topshirish vaqtida ta'lim shaklining sirtqi yoki yangi - 2022/2023-o'quv yilidan boshlab **masofaviy turini tanlashingiz mumkin.** Bunda siz talaba bo'lgan taqdiringizda bilim yurtiga har kuni borib, dars jarayonlarida qatnashishingiz shart bo'lmaydi. Boshqa ta'lim shakllari va ajratiladigan kvotalar haqida batafsil ma'lumotni esa Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining rasmiy sahifalari orqali olishingiz mumkin.

Bugungi kunda 30 dan oshiq xorijiy OTM va ularning filiallari respublikamiz hududi bo'ylab talabalariga ilm ulashish bilan band. Shu bilan birga, **grantlar.uz rasmiy sayti** orqali ham o'zingiz va kelajak rejalaringiz uchun katta imkoniyatlar eshigiga kalit topishingiz mumkin.

2018-yil faoliyati qayta tashkil etilgan, ilg'or xorijiy davlatlarning nufuzli universitetlari va ilmiy markazlarida bakalavriat, magistratura va doktoranturada ta'lim olish uchun stipendiyalar tanlovi ni e'lon qilib kelayotgan **"El-yurt umidi" jamg'armasi** haqida ham internet tarmog'ida siz uchun foydali ma'lumotlar topilishi aniq.

Asosan, qiz bolalar duch keladigan muammo, ayrim o'g'il bolalarga ham begona emas. Albatta, biz uchun har doim faqat va faqat yaxshilik tilaydigan yaqinlarimizga keskin qarshi borish na mentalitetga, na diniy tarbiyamizga to'g'ri keladi. Ammo o'zingiz sevgan ish bilan shug'ullanishga intilish, tanlagan sohangizga bo'lgan kuchli muhabbatigizni ko'rganlar sizni qo'llab-quvvatlashiga ishonchimiz komil. Ishonch va qat'iyat bilan tashlangan qadam hech qachon muvaffaqiyatsizlikka olib bormasligini yodda tuting! Eng yaxshi sarmoya bu bilim olish uchun tikilgan sarmoyadir! Sizda intilish bor ekan, yo'l ham topiladi!

Respublikamizdagi ayrim xorijiy universitetlarning filiallaridagi fundamental, tibbiy, aniq va gumanitar fanlar bo'yicha yuqori malakali mutaxassislar tayyorlaydigan, biznes axborot va yurisprudensiya, kompyuter injiniringi, dasturiy injiniring, iqtisodiyot, menejment, axborot texnologiyalari kabi yo'nalishlarida xalqaro darajada ta'lim beriladigan OTMlarda ko'pchilik o'qishni istaydi. Biroq bunga to'lov kontraktining juda qimmatligi to'siq bo'lishi mumkin.

Umidingizni so'ndirmang! Yillik 14 foiz stavka bilan 7 yilgacha olish mumkin bo'lgan ta'lim kreditlari bor. Uni o'qishni tamomlab, ishga joylashgach, 7-oydan boshlab qaytarishingiz mumkin bo'ladi. Yoki Yoshlar ishlari agentligi tomonidan yo'lga qo'yilgan **"Talabaga madad"**, **"Metsenat.uz"**, **"Imkon.uz"** loyihalari orqali kontrakt summangizning 50 yoki 100 foiz qismi qoplab berilishi mumkin. Shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar uchun shakllantirilgan maxsus daftarlarga kiritilgan yoshlarga ham to'lov shartnomasini to'lashda bir qator yengilliklar yaratib berilgan. Demak, kontrakt to'lay olmaslik haqidagi xavotirlarni o'zimizdan uzoqlashtirish fursati keldi!



IMKONSIZLIK, MUAMMO, IKKILANISH, QO'RQUV BILAN YUZMA-YUZ

“

YILLIK 14 FOIZ STAVKA BILAN 7 YILGACHA OLISH MUMKIN BO'LGAN TA'LIM KREDITLARI BOR.

Ayrim-lardagi soha tanlashda ikkilanishning asl sababini esa maktab davrida biror fanga chuqur kirishib o'rganmagani yoki maktabdagi kasbga

yo'naltiruvchi to'garaklarning to'g'ri yo'lga qo'yilmagani, shu bilan birga, amaliyotchi maktab psixologining o'quvchilar bilan ishlashni munta-zam olib bormaganida ko'rish mumkin. Lekin kimnidir ayblashdan foyda bo'lmaganidek, yechimni birga izlash orqali ijobiy natijaga erishish mumkin.

O'ylab ko'ring, ovqat tayyorlash, xona interyeri bilan shug'ullanish, rozgor buyumlaridan yangi nimadir ixtiro qilish kabi kichik ishlarni endi professionallikka aylantirish vaqt kelgandir? Agarda siz bularga shunchaki bir qiziqish deb qaraydigan bo'lsangiz, oilaviy shajarangiz va undagilarning shu kungacha nima ish bilan shug'ullanib kelganini bir bor ko'zdan kechirib chiqishni maslahat beramiz. "Ota kasb" tushunchasi o'z-o'zidan paydo bo'lmagan. Odatda ota ustasiga aylangan biror kasb-hunarga nisbatan uning farzandida ham yashirin iste'dod saqlanib turgan bo'lishi ko'p kuzatilgan.

Keyingi muammo o'ziga ishonmaslik, "o'qiganlarim xotiramda qolmaydi" va "U yerda mendan ham bilimlar yig'iladi" deb qo'rqish. Bunday vaziyatlarda, eng avvalo, tinch muhit zarur bo'ladi, siz bilan dildan suhbat qura oladigan, hayotiy tajribasi katta insonlar, talabalikka erishgan va kirish imtihonlaridan muvaffaqiyatli o'tgan yaqinlaringiz bilan muloqotda bo'lish o'zingiz kutgandan ham yaxshi natija bera olishi mumkin!

“

"TALABAGA MADAD", "METSENAT.UZ", "IMKON.UZ" LOYIHALARI ORQALI KONTRAKT SUMMANGIZNING 50 YOKI 100 FOIZ QISMI QOPLAB BERILISHI MUMKIN.



hikoya

Kasalxonada og'ir kasallik bilan davolanayotgan ikki kimsa xonadosh edi. Ular vaqtni o'tkazish uchun faqat suhbatlashardi. Rafiqasi, oilasi, uyi, ishlari to'g'risidagi hikoyalar hech tugamasdi.

Bemorlardan birining yotog'i derazaga yaqin bo'lib, u ko'chani bemalol kuzata olardi. Sherigi esa bu baxtdan mosuvo edi. Deraza oldidagi bemor tashqarini kuzatgancha, u yerda nimalar bo'layotganini hamxonasiga so'zlab berardi. Sherigi esa o'rnidan turolmagani uchun o'kinar, tashqarini bir bora kuzatish uchun borini berishga tayyor edi.

Aytishicha, derazadan bog' ko'rinib turar, u yerdagi ko'lda o'rdaqlar suzar, bolalar esa ularga non tashlab qayiqda aylanishardi. Sevishganlar daraxt ostida suhbatga berilardilar. Bemor ushbu lavhalarini ipidan ignasigacha tasvirlab bergach, sherigi uni tasavvur qilganча xayollarga berilardi.

Shu taxlit kunlar, haftalar o'tdi. Bir kuni hamshira ularning palata-

siga kirib, deraza oldidagi bemorning vafot etganini ko'rdi. U tinchgina, uyqusida jon bergandi. Hamshira bu haqda xabar qilgach, uni olib chiqib ketishdi.

Shundan so'ng narigi bemor derazali yotoqqa ko'chish uchun ruxsat so'radi. Hamshira bunga rozilik bildirib, unga yordamlashdi. Bemor, nihoyat, tashqarini ko'rish baxtiga muyassar bo'ldi. U quvonch bilan ko'chaga mo'raladi. Ammo... deraza ortida qup-quruq bir devor turardi, xolos. Axir qanaqasiga, deb o'ylanardi bemor. So'ng hamshiradan tashqaridagi bog' qayerga yo'qolganini so'radi. Hamshira yelkasini qisganча,

- U yerda hech qachon bog' bo'lmagan, - dedi.

Sherigining hayotbaxsh aldovi uni o'limdan saqlab kelganini anglagan bemor do'stiga aylanib qolgan hamxonasi uchun ko'z yosh to'kdi.

Ingliz tilidan

NODIRABEGIM tarjimasida.

TASHBEH


Tashbeh sharq adabiyotida keng tarqalgan badiiy san'at turlaridan biri bo'lib, o'xshatish ma'nosini ifodalaydi. Bu ikki narsa yoki tushunchani ular o'rtasidagi haqiqiy (real) yoki majoziy munosabatlarga ko'ra o'xshatish san'atidir. Tashbeh san'ati tasvirlanayotgan shaxs, buyum yoki tushunchani o'quvchi ko'z o'ngida aniqroq, jozibaliroq gavalantirishga xizmat qilib, asar timsollari ma'naviy qiyofasini yorqinroq ochish, shoir g'oyasini o'quvchi ongiga to'laroq yetkazishga imkon beradi. Masalan, Furqatning:

*Labi - g'uncha, yuzing
- ikki qizil gul.*

*Qading - sarv-u, soching
go'yoki sunbul*

baytida ma'shuqaning
a'zolari aniq narsalarga: labi
g'unchaga, yuzi qizil gulga,
qaddi sarvga, sochi esa sunbulga
o'xshatiladi. Bu o'rinda
haqiqiy tashbeh qo'llanilgan.

Anvar HOJIAHMEDOVning
"She'r san'atlari" kitobidan



AKA

*Kindigimday o'raladi yo'l,
Izlab keldim kindik qonimni.
Kindikdoshim, ko'zingga ishon
Va ketkizma boshqa yoningdan.*

*Ey yelkasi tulpor bo'lganim,
Dupurini tingla yurakning.
Obi diydam tiyib qo'y bir pas,
Bas! Yig'lagan erkak erkakmi?!*

*Beqo'nimman, koyisang, mayli,
Kuyinmagin, do'stim - jigirim.
To'larmidim onam bag'riga?
Baxtim kabi ko'ngil ham yarim.*

*Aka, uzoq tentidim majhul,
O'lchangandek umrim qadamlab.
Qayga boqmay, o'yimday chigal
Talmovsirab yurmish odamlar.*

*Shu ostona - topgan manzilim,
Olti yoqni izg'ibman - xayol.
Sudralganim - ilon yo'l umr
Va poyimda o'rmalagan yo'l.*

*Men ketarman... yana otlandim...
Xivchindan ot yasab ber, aka.
Hech bo'lmasa, onam uchun sen
Baxtli bo'lib yashab ber, aka.*

Asliddin ABDURAZZOQ,

Guliston davlat universiteti talabasi



TIL BILIMI

G'OLIBLAR FINALDA



Anvar TOYCHIVEV,

Yoshlar ishlari agentligi Sirdaryo viloyati
boshqarmasi axborot va media xiz-
mati rahbari. Muallif o'ziga surat.

"Yoshlar ishlari agentligi kubogi" shaxmat turnirining Sirdaryo viloyati bosqichi poyoni-ga yetdi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, havaskorlar o'rtasida Boyovut tumanidagi "Olmazor" mahallasidan Marjona Azizqulova, Guliston tumanidagi Ahmad Yassaviy nomli mahalladan Shohrux Isroilov; professionallar o'rtasida esa Boyovut tumanidagi "Tinchlik" mahallasidan Malika Jumayeva hamda Sardoba tumanidagi "Birlashgan" mahallasidan Bahrom Bahrullayev respublika bosqichida viloyat sha'nini himoya qiladigan bo'ldi.

SHAXMAT TURNIRI



0 YOSH NIMA DEGANI?

Bir deputat aytyapti: "Yurtimiz aholisining salmoqli qismini 0 yoshdan 18 yoshgacha bo'lganlar tashkil etadi".

Dori-darmon yo'riqnomasi va bolalar ozuqalari o'ramida ham "0-3 yoshgacha bo'lganlarga berish tavsiya etiladi/etilmaydi" degan yozuvni ko'rasiz.

Xo'sh, 0 yosh necha yosh? Yoki uni qanday ifodalash mumkin?

Ko'pincha shunday tanqidlardan keyin o'quvchilar "Yoqmayotgan bo'lsa, nega o'z variantingizni taklif qilmaysiz?" deb e'tiroz bildiradi.

Keling, mening variantimni o'qib ko'ring. Ma'qul bo'lsa, foydalanarsiz "Yurtimiz aholisining salmoqli qismini 18 yoshgacha bo'lganlar tashkil etadi".

Xayriddin MURODning

@tahrir_uz telegram kanalidan olindi.

YOSHLAR OYLIGI BOSHLANDI

30-iyun – Yoshlar kuni munosabati bilan iyun oyi Yoshlar oyligi etib belgilanib, **“Yangi O‘zbekiston yoshlari, birlashaylik!”** shiori ostida mahalla–sektor–tuman–hudud–respublika darajasida yoshlar festivallari va forumlari, tanlov va musobaqalar boshlandi.

Yoshlar oyligi davomida 2–30-iyun kunlari respublika bo‘ylab:

Buxoro shahrida Turkiy davlatlar tashkilotiga a‘zo mamlakatlar yoshlari ishtirokida “IV Yosh liderlar forumi”;

Navoiy viloyatida tarixda birinchi bor shaxmat bo‘yicha “Yoshlar ishlari agentligi kubogi” final bosqichi;

Samarqand viloyatida “Bolalar ligasi”, Stritbol va “Street workout” musobaqalari final bosqichi;

Xorazm viloyati mezbonligida “Yengil atletika” musobaqasi final bosqichi;

Toshkent viloyatida “Eng namunalik maktab va mahalliy sardorlar Kengashi” tanlovlari, stol tennisi va ot sport turi bo‘yicha “Yoshlar kubogi”;

Farg‘ona viloyatida “Yosh tadbirkorlar” va “Yosh hunarmandlar” respublika forumi;

Sirdaryo viloyatida “Munozara” intellektual o‘yini;

Jizzax viloyatida “Shashka” bo‘yicha musobaqa final bosqichi;

Namangan va Qashqadaryo viloyatlarida yigit va qizlar o‘rtasida voleybol musobaqasi final bosqichi;

Andijon viloyatida “Zukko kitobxon” intellektual o‘yini respublika bosqichi.

Poytaxtimizda Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga a‘zo va kuzatuvchi davlatlar yoshlari o‘rtasida “UNICORNS ShHT” startap tanlovi va Yoshlar kengashining 15–yig‘ilishi, imkoniyati cheksiz yoshlar o‘rtasida “Inklyuziv sayl”, Kibersport muso-

baqasi, “Zakavat” intellektual o‘yini, “Quvnoqlar va zukklar”, “Bolalar va yoshlar uchun eng yaxshi kitob”, “Mushoira” va “Yosh kitobxon oila” tanlovlarining yakuniy bosqichlari o‘tkaziladi.



Oylik yakuni sifatida 30-iyun – Yoshlar kunida Toshkent shahridagi “Bunyodkor” stadionida respublika yoshlar forumi yuqori saviyada tashkil etiladi.

Bundan tashqari, hududlarda yoshlar siyosati samaradorligini oshirish, belgilangan vazifalar sifatli amalga oshirilishini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Res-

publikasi Administratsiyasi, tegishli vazirlik va idoralar mas‘ullaridan tashkil topgan respublika ishchi guruhi tomonidan joylarda o‘rganishlar o‘tkazilmoqda.

Yuqorida qayd etilgan har bitta vazifa va loyihaning yoshlar manfaatidan kelib chiqib, sektor rahbarlari, hokimliklar, mutasaddi vazirlik va idoralar bilan ham-

korlikda tizimli va sifatli amalga oshirilishi ta‘minlanadi.

Eslatib o‘tamiz, poytaxtimizda Yoshlar oyligini yuqori saviyada o‘tkazish maqsadida respublika shtabi, viloyatlar va tuman (shahar)larda mahalliy shtablar faoliyati yo‘lga qo‘yilgan hamda hududlarda amalga oshirilayotgan ishlar monitoring qilib borilmoqda.

YOSHLAR OVOZI

Bosh muharrir:
Hamza ABDULLAYEV

Muassis:
O‘zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi

Bosh hamkor:
O‘zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:
Sardor SA‘DULLAYEV

Musahhihlar:
Rashid XO‘JAMOV,
Qirmizoy HAKIMOVA

Gazeta O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ruyxatdan o‘tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida terila va sahifalandi. Tahririyat manzili: 100083, Toshkent, Matbuotchilar ko‘chasi, 32. Telefonlar: (7) 233-22-16, (7) 236-79-95.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida, A-3 formatda chop etildi. Hajmi – 2 bosma taboq. Korxonalar manzili: Buyuk Turon ko‘chasi, 41. Indeks: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma – G-655, Adadi – 10584. Bosishga topshirish vaqti – 21.00. Topshirildi – 20.00

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

